XALQ DEPUTATLARI BANDIXON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-iyun VI-73-64-8-211-K/24 Bandixon tumani

Bandixon tumandagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 20-yanvardagi 01-15/11-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 20-fevraldagi 18-07/47-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 14-martdagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” 05-19-01-434-sonli ekspertiza xulosasini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi A.Allamuradovning tumandagi ayrim Geografik obyektlarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 20-yanvardagi 01-15/11-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik

obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 20-fevraldagi 18-07/47-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 14-martdagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” 05-19-01-434-son ekspertiza xulosasi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 14-martdagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” 05-19-01-434-son ekspertiza xulosasiga asosan tumandagi 13 ta nomsiz ko‘chani (geografik obyektlarni) nomlash bo‘yicha berilgan ekspertiza xulosasi O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq deb hisoblanganligi inobatga olinsin hamda ushbu geografik obyektlarning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (I.Beknazarov), Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi Bandixon tumani filiali (X.Allamuratov) birgalikda:

nomlanayotgan ko‘chalarning (geografik obyektlar nomlarining) kartografiya va ma’lumotnoma nashrlarini tayyorlasinlar hamda chegaralarini aniqlab, 2024-yil may oyining oxiriga qadar Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga taqdim etsin.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Bandixon tumani bo‘limi (H.To‘rayev) va tuman Ichki ishlar bo‘limi (M.Ishkarayev) tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda:

ko‘chalarning nomlari tasdiqlanganligi sababli fuqarolarning fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarining tashkiliy ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi yuzasidan ta’sirchan chora-tadbirlarni belgilasin.

6.Tuman Statistika bo‘limi(O‘.Raxmatov):

Bandixon tumani hududida nomlari tasdiqlangan, nomlanganko‘cha nomlarini inobatga olgan holda statistik ma’lumotlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsin.

7. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (I.Beknazarov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Bandixon tumani bo‘limi (H.To‘rayev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Qurbonmurotov):

nomlari tasdiqlangan ayrim geografik obyektlar(ko‘chalar) nomlarini nomlari yozilgan ko‘rsatkich, belgilar, peshlavhalarning bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin, shuningdek, obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etsin.

Belgilansinki, xarajatlar mahalliy budjet, homiylik hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan belgilangan tartibda moliyalashtiriladi.

8. Belgilab qo‘yilsinki, tasdiqlangan geografik obyektlar nomlari tuman hududida to‘g‘ri va to‘liq yuritilishi shart.

9.Tuman hokimligi Axborot xizmati (*Lavozimiga ko‘ra*)ga, “Yangi Bandixon” gazetasi tahririyati (A.Rajabov)ga nomlari tasdiqlangan, nomlangan ayrim geografik obyektlar to‘g‘risida ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarga yoritish tavsiya etilsin.

10. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud 13 ta geografik obyektlarning(ko‘chalarning) nomlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, ushbu 13 ta ko‘chaning ro‘yxati Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi B.Alimnazarov zimmasiga yuklansin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



ALLAMURADOV
ABDUMALIK
ABDUQODIROVICH

Xalq deputatlari Bandixon tumani
Kengashining
2024-yil 25-iyundagi
VI-73-64-8-211-K/24 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza xulosasi berilib, qonunga muvofiq deb topilgan Bandixon tumanidagi mavjud geografik obyektlar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	**1.Torqopchig‘oy** 2.Samara 3.Yakdillik	Ushbu berilgan takliflardan **Torqapchig‘ay** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	**1.Sardoba** 2.Savribuzar 3.Surxon	Ushbu berilgan takliflardan **Sardoba** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Ko‘cha	Farovon MFY	Nomsiz	**1. Jayhun** 2.Madaniyat 3. Zarangbuloq	Ushbu berilgan takliflardan **Jayhun** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Ko‘cha	Paxtakor MFY	Nomsiz	1. **Oltinbog‘** **2.** Yosh kuch 3.Adolat 4.Vatanparvar 5.Porloq yo‘l	Ushbu berilgan takliflardan **Oltinbog‘** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

5.	Ko‘cha	Paxtakor MFY	Nomsiz	**1. Yuqori Bog‘** 2**.** Beruniy 3.Bandixon bog‘i 4.Baraka 5.Ibrat	Ushbu berilgan takliflardan **Yuqori Bog‘** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Ko‘cha	Navro‘z MFY	Nomsiz	**1.Ko‘kdala** 2.Naqqosh 3.Ravon	Ushbu berilgan takliflardan **Ko‘kdala** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Ko‘cha	Navro‘z MFY	Nomsiz	**1. Shahrisabz** 2. Cho‘lpon	Ushbu berilgan takliflardan **Shahrisabz** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Ko‘cha	Navro‘z MFY	Nomsiz	**1.Kengdala** 2.Olmos 3.Gulsaroy	Ushbu berilgan takliflardan **Kengdala** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Ko‘cha	Xo‘jaipok MFY	Nomsiz	**1. Xo‘jaipok** 2. Ilm-ma’rifat 3.Umar Hayyom 3.Ibn Sino	Ushbu berilgan takliflardan **Xo‘jaipok** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Ko‘cha	Obodyurt MFY	Nomsiz	**Qang‘isoy**	Ushbu berilgan takliflardan **Qang‘isoy** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Ko‘cha	Obodyurt MFY	Nomsiz	**1.Obodgulshan** 2.Boboyurt	Ushbu berilgan takliflardan **Obodgulshan** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

12.	Ko‘cha	Obodyurt MFY	Nomsiz	**1.Ozod yurt** 2.Oriyat	Ushbu berilgan takliflardan **Ozodyurt** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Ko‘cha	Obodyurt MFY	Nomsiz	**1.Xalqlar do‘stligi** 2.O‘zbegim	Ushbu berilgan takliflardan **Xalqlar do‘stligi** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.